

BLOKCHEYN TEXNALOGIYALARI VA SMART KONTRAKTLARI RIVOJLANISHI VA O'ZBEKISTONGA KIRIB KELISHI

Samandarov Jasurbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada blokcheyn texnologiyasi rivojlanishi va u qanday texnologiya ekanligi qaysi sohalarda qolanilishi imkoniyatlari yani avzaliklari haqida keltirilgan. Smart kontraktlar nima ekanligi insonlarga qanday qulay taraflari haqida tatqiqotchilarning fikirlari organib chiqilgan

Kalit so'zlar: Blokcheyn, Kriptoalyutada, Bank ishida, Aktivlarni o'tkazishda, Aqlli shartnomalarda, Ta'minot zanjiri monitoringida, Tranzaksiyalarning yuqori aniqligi, Qo'shimcha xavfsizlik

KIRISH

Blokcheyn — bu deyarli barcha kriptoalyutalarning markazida joylashgan innovatsion ma'lumotlar bazasi texnologiyasi. Ma'lumotlar bazasining bir xil nusxalarini butun tarmoq bo'ylab tarqatish orqali blokcheyn tizimni buzish yoki aldashni juda qiyinlashtiradi. Hozirgi vaqtda kriptoalyuta blokcheyn uchun eng mashhur foydalanish bo'lsa-da, texnologiya juda keng doiradagi ilovalarga xizmat ko'rsatish potentsialini taklif etadi. Blokcheyn — bu shunchaki ma'lumotlar bazasi

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

D.A.Belyayeva blokcheyn texnologiyasini amalga oshirish va foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qildi . A.Yakubov milliy va xalqaro huquqiy hujjatlar, olimlarning tadqiqotlari asosida O'zbekiston qonunchiligida blokcheyn texnologiyalari asosida yaratilgan mahsulotlar (kriptoalyuta, tokenlar, smart kontrakt)ning huquqiy maqomini aniqlashga qaratilgan tahlil o'tkazib, milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflarni ilgari surgan . N. To'raqulova tomonidan intellektual mulk huquqi obyektlarining muhofazasini samarali ta'minlashda blokcheyn texnologiyalarining ahamiyati tahlil etilgan. Blokcheyn texnologiyasining asosiy jihatlari, ya'ni markazlashtirilmaganligi, raqamli ma'lumotlarning shaffof, maxfiy va ishonchli tarzda foydalanuvchilar o'rtasida tez va qulay ma'lumotlar almashinuvi imkoni borasida muallifning fikrlari keltirilgan . E.Mo'minovaning maqolasida blokcheyn texnologiyasiga ta'rif berilgan, qo'llash sohalari haqida fikr yuritilgan.

Aqlli shartnomalar tushunchasi juda keng qamrovli hisoblanib, nazariya uchun nisbatan yangi munosabat bo'lgani uchun umumiy bir ta'rif yo`q. Lekin ushbu sohada dastlabki tadqiqotlar o'tkazgan olimlardan bir Nick Szaboning ta'rificha — Aqlli shartnoma shartnomalar shartlarini bajaradigan kompyuterlashtirilgan algoritmidir.

Aqlli shartnoma - bu ikki tomon o`rtasidagi kodlangan kelishuv bo`lib, tovarlar yetkazib berilgandan yoki xizmatlar tugallangandan so`ng avtomatik ravishda almashinuvni amalga oshiradi. Smart kontraktlar shunchaki blokcheynda saqlanadigan shartnomalar emas ular o`z-o`zidan bajariladigan kompyuter kodlari bo`lib, ular shartnomaning bajarilishini ta`minlaydi, osonlashtiradi va tasdiqlaydi.

XULOSA

Blokcheyn texnologiyasi orqali ko`plab iqtisodiy va moliyaviy operatsiyalarni bajarish imkoni borligi tufayli ko`plab mamlakatlar va yirik korxonalar rahbarlari bu texnologiya insonlar hayotiga yanada chuqur kirib borishini bashorat qilmoqdalar.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, smart kontraktlar blokcheyn texnologiyasi asosida tuziladigan, kodlangan va avtomatik ravishda amalga oshiriladigan shartnoma turi ekan. Smart kontraktlarning o`ziga xos xususiyati shundan iborat ekanki, ular elektron tijorat huquqi va kiber huquq doirasida tartibga solinadi.

Adabiyotlar:

[1]. Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётни ва крипто-активлар айланмаси соҳасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида (қарор номи ЎзР Президентининг 2022 йил 27 апрелдаги ПФ-121-сонли 222 [2]. Фармони таҳририда) <https://lex.uz/ru/docs/3806053?ONDATE=28.04.2022> 2. Intellektual mulk. Darslik. Mas'ul muharrirlar: yu.f.d., prof., O.Oqyulov, yu.f.f.d. (PhD), dotsent N.E.Gafurova // Mualliflarning jamoasi. - T., TDYU nashriyoti, 2019. - 588 b.

[3]. Беляева Д.А.Технология блокчейн: вызовы и перспективы // Вопросы студенческой науки. Вып.№1 (77), январь, 2023. С.527-531.

[4]. Shukhrat Nuralievich Ruzinazarov, ODR as a new way of resolving online disputes in Ecommerce, Eurasian Scientific Herald.

[5].Izbosarov Javohir Turg'un o'g'li tomonidan yozilgan —Aqlli shartnomalarni (smart contract) fuqarolik-huquqiy tartibga solish mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishi, Toshkent-2022, 3- bet.

[6].Szabo N. Theory of distortion of meaning. URL: <https://www.proza.ru/2015/01/26/668>(accessed 17.03.2019), (In Russ).